
MFY XODIMLARI UCHUN YANGI BINO QURILDI

Oltiariqda bunyodkorlik ishlari jadal sur'atda olib borilmoqda.

Xududlar infratuzilmasini yanada yaxshilash, ichimlik suvi, elektr va yo'llar bilan bog'liq muammolarni xal etish, aholi uchun barcha sharoitlarni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlı ishlar bajarilmoqda.

Bu ishlar Prezidentimizning PQ-408-sonli qarori asosida byudjet mablag'lari xisobidan amalga oshirilyapti.

Bugun tuman hokimi Sh.Turdaliyev hamda Sektor rahbarlari ishtirokida 2-Sektorda joylashgan Toshkent MFY uchun qurilgan yangi bino foydalanishga topshirildi.

Guzarda nuroniylar hamda yoshlar uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan. Mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda IIB profilaktika tayanch punktiga alohida xonalar, kutubxona va faollar zali zamonaviy ko'rinishda barpo etilgan.

Tuman hokimi ramziy kalitni topshirarkan, bu maskan mahalla ahliga samarali xizmat qilishi, o'zaro birdamlikni mustahkamlashi, yurt farovonligiga xissa qo'shishi zarurligini ta'kidladi.

Shodiyonalar iftorlik dasturxonı atroqida ham davom etdi.

2023-04-10 07:15:09